



VOYAGA YETGAN MEHNATGA LAYOQATLI BOLALARNING YORDAMGA MUHTOJ OTA- ONASIGA MODDIY YORDAM BERISH MAJBURIYATINI BELGILASHDA OTA- ONANING MODDIY TA'MINLANGANLIK HOLATINI ANIQLASH MASALALARI

M.S.Usmonova

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, y.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning yordamga muhtoj ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyatining yuzaga kelish asoslari, xususan, ota-onaning yordamga muhtojligini aniqlash bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalar tahlil qilingan. Ota-onaning yordamga muhtojligini baholashda uning amaldagi daromadlari bilan cheklanib qolmasdan, pensiya, nafaqa va boshqa kafolatlangan ijtimoiy to'lovlarni olish huquqi hamda ulardan amalda foydalanayotganligi holatini hisobga olish zarurligi asoslantirilgan. Pensiya yoshiga yetgan shaxsning tegishli pensiyani tayinlash to'g'risida o'z vaqtida murojaat qilmasligi uning real moddiy imkoniyatlarini baholashga hamda voyaga yetgan boladan undiriladigan moddiy ta'minot miqdorini belgilashga ta'sir qilishi mumkinligi ochib berilgan. Shu munosabat bilan yoshga doir pensiyani fuqaroning alohida murojaatisiz proaktiv shaklda tayinlash mexanizmining oilaviy-huquqiy munosabatlar uchun ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqot natijasida pensiya ta'minoti sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish orqali yordamga muhtoj ota-onaning real moddiy holatini obyektiv aniqlash hamda voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalar zimmasiga yuklatiladigan moddiy yordam majburiyatining adolatli chegaralarini belgilashga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar:

voyaga yetgan bola, mehnatga layoqatlilik, ota-ona, yordamga muhtojlik, moddiy yordam, ta'minot majburiyati, ota-onaning moddiy ahvoli, daromad, pensiya ta'minoti, yoshga doir pensiya, proaktiv xizmat, oilaviy-huquqiy majburiyat.

Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar nafaqat axloqiy va ma'naviy qadriyatlarga, balki muayyan huquq va majburiyatlarga ham asoslanadi. Ota-ona tomonidan farzandni voyaga yetkazish, tarbiyalash va moddiy ta'minlash majburiyatining mantiqiy davomi sifatida voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlarning muayyan shartlar mavjud bo'lganida ota-onasiga moddiy yordam ko'rsatish majburiyati yuzaga keladi. Mazkur majburiyat avlodlar o'rtasidagi o'zaro moddiy ko'makning oilaviy-huquqiy ifodasi hisoblanadi.

Voyaga yetgan bolalarning ota-onasiga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatini huquqiy tartibga solishda eng murakkab masalalardan biri ushbu majburiyatning yuzaga kelishi uchun zarur bo'lgan yuridik faktlarni to'g'ri aniqlashdan iborat. Bunda bolaning voyaga yetganligi va mehnatga layoqatliliigi bilan bir qatorda ota-onaning moddiy yordamga muhtojligi ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Binobarin, har qanday ota-ona emas, balki qonunchilikda nazarda tutilgan shartlarga javob beradigan va obyektiv ravishda yordamga muhtoj bo'lgan ota-ona voyaga yetgan bolasidan moddiy ta'minot talab qilish huquqiga ega bo'lishi lozim.

Shu jihatdan "yordamga muhtojlik" tushunchasining huquqiy mazmunini belgilash alohida ilmiy ahamiyatga ega. Yordamga muhtojlikni faqat shaxs olayotgan pul mablag'larining miqdori orqali baholash mazkur tushunchaning mazmunini to'liq ochib bermaydi. Ota-onaning moddiy holatini aniqlashda uning pensiyasi, nafaqasi, boshqa doimiy daromadlari, mol-mulki, zarur kundalik xarajatlari, sog'lom hayot kechirishi uchun zarur ehtiyojlari hamda qonunchilik asosida foydalanishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ta'minot vositalari kompleks ravishda hisobga olinishi zarur.

Ayniqsa, ota-onaning pensiya ta'minotiga bo'lgan huquqidan amalda foydalanayotgan yoki foydalanmayotganligi uning moddiy holatini baholashga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pensiya yoshiga yetgan shaxs qonunchilikka muvofiq yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lsa-da, ushbu huquqni amalga oshirish muayyan holatlarda fuqaroning murojaatiga bog'liq bo'lib qolishi uning amaldagi daromadlari bilan qonun bo'yicha olishi mumkin bo'lgan daromadlari o'rtasida tafovut yuzaga keltirishi mumkin.

Bunday vaziyat oilaviy-huquqiy nizoni hal qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ota-onaning voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolasidan moddiy yordam talab qilishga bo'lgan ehtiyojini aniqlashda uning real moddiy imkoniyatlari imkon qadar to'liq baholanishi kerak. Aks holda, shaxs foydalanishi mumkin bo'lgan kafolatlangan daromad manbai hisobga olinmasdan, moddiy ta'minot majburiyatining asosiy qismi voyaga yetgan bolaning zimmasiga yuklatilishi ehtimoli yuzaga keladi. Bu esa ota-ona manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda taraflarning moddiy va oilaviy holati o'rtasida oqilona muvozanatni ta'minlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Shu sababli yordamga muhtoj ota-onaning moddiy holatini aniqlash masalasini faqat oila qonunchiligi doirasida o'rganish yetarli emas. Mazkur munosabat pensiya va boshqa ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy mexanizmlar bilan chambarchas bog'liq. Pensiya ta'minoti tizimining samarali ishlashi ota-onaning mustaqil va kafolatlangan daromad manbasini shakllantirish bilan birga, uning voyaga yetgan bolasidan qo'shimcha moddiy yordam olishga real ehtiyoji mavjud yoki mavjud emasligini obyektiv aniqlash imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, pensiya yoshiga yetgan fuqaroning yoshga doir pensiyasini uning alohida murojaatini kutmasdan, vakolatli davlat organlarining axborot tizimlarida mavjud ma'lumotlar asosida proaktiv shaklda tayinlash mexanizmini joriy etish muhim huquqiy ahamiyat kasb etadi. Bunday mexanizm bir tomondan shaxsning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqini o'z vaqtida amalga oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyatini belgilashda ota-onaning haqiqiy moddiy ta'minlanganlik darajasini aniqlash imkoniyatini kengaytiradi.

Mazkur tadqiqotning **maqsadi** voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning yordamga muhtoj ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyatini belgilashda ota-onaning moddiy ta'minlanganlik holatini aniqlash bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish, "yordamga muhtojlik" mezonini qo'llashda pensiya ta'minotining huquqiy ahamiyatini ochib berish hamda yoshga doir pensiyani proaktiv tayinlash orqali mazkur munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda tizimli-huquqiy, formal-yuridik, mantiqiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Oila va pensiya qonunchiligi normalarining o'zaro bog'liqligi voyaga yetgan bolalarning ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyatining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga moddiy yordam ko'rsatish majburiyati oila huquqidagi alohida ta'minot majburiyatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur majburiyatning o'ziga xosligi shundaki, u ota-ona va bola o'rtasidagi qarindoshlik faktining o'zi bilangina avtomatik ravishda vujudga kelmaydi. Uni amalga oshirish uchun qonunchilikda nazarda tutilgan muayyan shartlarning bir vaqtda mavjud bo'lishi talab etiladi.

Bunda ota-onaning yordamga muhtojligi moddiy yordam talab qilish huquqini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. "Yordamga muhtojlik" baholovchi huquqiy kategoriya bo'lib, uni aniqlashda faqat shaxsning bir oylik daromadi yoki pensiyasi miqdoriga tayanish yetarli emas. Mazkur holat ota-onaning umumiy moddiy va oilaviy ahvoli, doimiy daromad manbalari, zarur ehtiyojlari hamda ijtimoiy ta'minot tizimi orqali olish huquqiga ega bo'lgan mablag'larini o'zaro bog'liq holda baholashni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, yordamga muhtojlikni shaxsning zarur hayotiy ehtiyojlarini o'z daromadlari va qonuniy moddiy manbalari hisobidan mustaqil ravishda yetarli darajada qondira olmasligi bilan bog'liq holat sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv ota-onaning manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda voyaga yetgan bolaning zimmasiga asossiz yoki nomutanosib moddiy majburiyat yuklatilishining oldini olishga ham xizmat qiladi.

Ota-onaning yordamga muhtojligini aniqlashda uning faqat sudga murojaat qilgan paytdagi amaldagi daromadlarini hisobga olish ayrim hollarda haqiqiy moddiy holatni to'liq ifodalamasligi mumkin. Masalan, ota-ona qonunchilikda belgilangan yoshga yetgan va yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, biroq tegishli pensiyani rasmiylashtirmagan bo'lishi mumkin. Bunday holatda uning amaldagi daromadi past bo'lib ko'rinsa-da, bu holat obyektiv moddiy imkoniyatlarning to'liq ko'rsatkichi sifatida baholanmasligi kerak.

Demak, "yordamga muhtojlik"ni aniqlashda **amaldagi daromad va qonun asosida olish huquqi mavjud bo'lgan kafolatlangan daromad manbai** tushunchalarini farqlash zarur. Mazkur farqlash voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyatining hajmini adolatli belgilashda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyatini belgilashda ota-onaning yordamga muhtojligini aniqlash masalasi uning moddiy ta'minlanganlik darajasini har tomonlama baholashni talab etadi. Bunda

ota-onaning faqat muayyan vaqtda olayotgan daromadlarini aniqlash bilan cheklanib qolish yetarli emas. Aksincha, shaxsning mavjud daromadlari, qonunchilik asosida olish huquqiga ega bo'lgan ijtimoiy to'lovlari va boshqa moddiy manbalari birgalikda baholanishi lozim.

Mazkur masalada pensiya ta'minoti alohida o'rin tutadi. Yoshga doir pensiya tegishli yoshga yetgan shaxs uchun qonun bilan kafolatlangan muhim va barqaror daromad manbalaridan biridir. Shu sababli yordamga muhtoj ota-onaning moddiy ahvolini aniqlashda uning pensiya olayotganligi, pensiya miqdori, shuningdek, pensiya olish huquqi mavjud bo'lsa-da, ushbu huquqdan amalda foydalanayotgan yoki foydalanmayotganligi e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Amaldagi tartibda pensiya olish huquqini amalga oshirishning fuqaro murojaatiga bog'liqligi ayrim hollarda pensiya yoshiga yetgan shaxsning ushbu huquqdan o'z vaqtida foydalanmasligiga olib kelishi mumkin. Natijada shaxsning amaldagi daromadlari uning real moddiy imkoniyatlarini to'liq aks ettirmaydi. Bunday holat voyaga yetgan mehnatga layoqatli boladan moddiy yordam undirish bilan bog'liq nizolarda ayniqsa muhimdir.

Ota-onaning yordamga muhtojligi uning daromadi mavjud yoki mavjud emasligi haqidagi formal holat asosida emas, balki real moddiy ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqib aniqlanishi maqsadga muvofiq. Boshqacha aytganda, shaxsning muayyan daromad manbasidan amalda foydalanmayotganligi har doim ham bunday daromad manbai mavjud emasligini anglatmaydi. Agar davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta'minotini olish uchun qonuniy asoslar mavjud bo'lsa, ushbu holat ota-onaning umumiy moddiy imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, bunday yondashuv ota-onaning moddiy yordam olish huquqini cheklash vositasi sifatida talqin qilinmasligi lozim. Pensiya mavjudligi yoki uni olish huquqining o'zi ota-onaning yordamga muhtoj emasligini avtomatik ravishda anglatmaydi. Pensiya miqdori ota-onaning zarur hayotiy ehtiyojlarini to'liq qoplamasligi mumkin. Shu sababli pensiya ta'minoti yordamga muhtojlikni aniqlashda hisobga olinadigan mezonlardan biri bo'lishi, yakuniy xulosa esa ota-onaning barcha daromadlari, zarur xarajatlari, moddiy va oilaviy holatini kompleks baholash asosida chiqarilishi lozim.

Bizning fikrimizcha, mazkur masalada "real moddiy ta'minlanganlik" tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Real moddiy ta'minlanganlik deganda shaxsning faqat amalda olayotgan pul mablag'lari emas, balki uning qonunchilik bilan kafolatlangan daromad manbalari va ulardan foydalanish imkoniyatlarini ham qamrab oluvchi moddiy holati tushunilishi lozim.

Bunday yondashuv voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolaning ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyatini belgilashda ikki tomon manfaatlarining mutanosibligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bir tomondan, yordamga haqiqatda muhtoj ota-onaning moddiy ta'minot olish huquqi kafolatlanadi. Ikkinchi tomondan esa bolaning zimmasiga ota-onaning obyektiv moddiy holatiga nomutanosib majburiyat yuklatilishining oldi olinadi.

Shu nuqtai nazardan, ota-onaning pensiya ta'minotiga bo'lgan huquqini o'z vaqtida amalga oshirish faqat ijtimoiy ta'minot huquqining vazifasi bo'lib qolmay, oilaviy-huquqiy munosabatlarning to'g'ri tartibga solinishiga ham bevosita ta'sir

qiladi. Ayniqsa, yoshga doir pensiya tayinlashning fuqaro murojaatiga bog'liqligi yordamga muhtojlikni baholashda ayrim huquqiy noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish va fuqarolarga ijtimoiy xizmatlarni proaktiv shaklda ko'rsatishning kengayib borishi shaxsning qonunda nazarda tutilgan huquqlarini ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarsiz amalga oshirish imkonini yaratadi. Mazkur yondashuv pensiya ta'minoti sohasida ham muhim ahamiyatga ega.

Yoshga doir pensiyani proaktiv shaklda tayinlash deganda pensiya yoshiga yetgan fuqaroning alohida murojaatini kutmasdan, davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida uning pensiya olish huquqini amalga oshirish mexanizmini tushunish mumkin. Bunday mexanizm, avvalo, fuqaroning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqini o'z vaqtida ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur mexanizm voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning yordamga muhtoj ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyati nuqtai nazaridan ham muhimdir. Chunki ota-onaning yordamga muhtojligi aniqlanayotganda uning doimiy va kafolatlangan daromad manbalari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish zarur. Pensiya yoshiga yetgan ota-onaga yoshga doir pensiyaning o'z vaqtida tayinlanishi uning real daromadini aniqlash imkonini beradi.

Aksincha, pensiya olish huquqiga ega bo'lgan shaxsning faqat murojaat qilmaganligi sababli tegishli pensiyani olmayotganligi uning amaldagi moddiy holatini sun'iy ravishda past ko'rsatishi mumkin. Bunday vaziyatda voyaga yetgan bolaning moddiy yordam ko'rsatish majburiyati va uning miqdorini belgilashda ota-onaning barcha moddiy imkoniyatlari to'liq hisobga olinmay qolishi ehtimoli mavjud.

Shu sababli yoshga doir pensiyani proaktiv tayinlash mexanizmini joriy etish ota-onaning yordamga muhtojlik holatini yanada obyektiv baholashga xizmat qiladigan huquqiy vosita sifatida qaralishi mumkin. Mazkur mexanizm ota-onaning moddiy yordamga bo'lgan ehtiyojini inkor etmaydi, aksincha, ushbu ehtiyojning real hajmini aniqlash imkonini beradi.

Fikrimizcha, bunda uchta huquqiy manfaat o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi: birinchidan, pensiya yoshiga yetgan fuqaroning davlat tomonidan kafolatlangan pensiya ta'minotiga bo'lgan huquqi o'z vaqtida amalga oshiriladi; ikkinchidan, yordamga muhtoj ota-onaning voyaga yetgan bolasidan zarur moddiy yordam olish huquqi saqlanadi; uchinchidan, voyaga yetgan bolaning zimmasiga yuklatiladigan moddiy yordam miqdorini ota-onaning haqiqiy moddiy ahvolidan kelib chiqib belgilash imkoniyati yaratiladi.

Shundan kelib chiqib, pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonunchilikda yoshga doir pensiyani proaktiv tayinlashning aniq huquqiy mexanizmini mustahkamlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Amaldagi pensiya qonunchiligida fuqarolar pensiya olish huquqi paydo bo'lganidan keyin pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilishlari mumkinligi nazarda tutilgan. Mazkur tartib fuqaroning subyektiv huquqini amalga oshirishni uning tashabbusi bilan bog'laydi.

Biroq pensiya yoshiga yetgan shaxsning murojaat qilmasligi uning qonun bilan kafolatlangan ijtimoiy ta'minotdan o'z vaqtida foydalanmasligiga sabab bo'lishi

mumkin. Mazkur holat yordamga muhtoj ota-onaning voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolasidan moddiy yordam talab qilishi bilan bog‘liq munosabatlarda ham huquqiy ahamiyatga ega.

Shu sababli O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunida pensiya tayinlashning murojaat asosidagi shakli bilan bir qatorda, qonunda belgilangan hollarda proaktiv shaklda tayinlash imkoniyatini ham bevosita mustahkamlash taklif etiladi.

Xususan, Qonunning 3-moddasini quyidagi mazmundagi qoida bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq:

“Ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda pensiya fuqaroning murojaatisiz proaktiv shaklda tayinlanadi.”

Mazkur qo‘shimcha pensiya tayinlashning proaktiv shakliga umumiy huquqiy asos yaratadi. Uning voyaga yetgan bolalarning ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyati bilan bog‘liq ahamiyati shundaki, pensiya yoshiga yetgan ota-onaning kafolatlangan daromad manbai o‘z vaqtida shakllanadi va uning yordamga muhtojligi real moddiy ko‘rsatkichlar asosida baholanishiga sharoit yaratiladi.

Bunda proaktiv pensiya tayinlashni fuqaroning tanlov huquqini cheklaydigan majburiy mexanizmga aylantirmaslik zarur. Fuqaroga proaktiv shaklda tayinlangan yoshga doir pensiyani olishni rad etish yoki qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda pensiyaning boshqa turini tanlash imkoniyati saqlanishi lozim.

Shu maqsadda “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunni alohida **43¹-modda** — **“Yoshga doir pensiyani proaktiv shaklda tayinlash”** bilan to‘ldirish taklif etiladi.

Mazkur moddada yoshga doir pensiya fuqaroning qonunda belgilangan pensiya yoshiga to‘lishi munosabati bilan uning alohida murojaatisiz tayinlanishi, bunda pensiya olish huquqini tasdiqlovchi ma’lumotlar davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlarida mavjud ma’lumotlar asosida aniqlanishi, shuningdek, fuqaroning proaktiv tayinlangan pensiyani olishni rad etish yoki pensiyaning boshqa turini tanlash huquqi kafolatlanishi maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan norma nafaqat pensiya ta’minotiga bo‘lgan huquqni o‘z vaqtida amalga oshirishga, balki oilaviy-huquqiy munosabatlarda ota-onaning moddiy ta’minlanganlik darajasini obyektiv aniqlashga ham xizmat qiladi. Natijada voyaga yetgan mehnatga layoqatli boladan moddiy yordam undirish masalasini hal qilishda ota-onaning nominal daromadlari emas, balki uning real va kafolatlangan daromad manbalarini hisobga olish imkoniyati kengayadi.

Yoshga doir pensiyani proaktiv shaklda tayinlash mexanizmining samarali ishlashi faqat pensiyani fuqaroning murojaatisiz tayinlash imkoniyatini belgilash bilan cheklanmasligi lozim. Bunda pensiya tayinlash masalasini ko‘rib chiqish muddati ham aniq belgilanishi zarur. Pensiya yoshiga yetgan shaxsning pensiya ta’minotiga bo‘lgan huquqi o‘z vaqtida amalga oshirilishi uning doimiy daromad manbaini shakllantirish va real moddiy holatini aniqlash imkonini beradi.

Shu sababli “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunning 45-moddasida yoshga doir pensiyani proaktiv shaklda tayinlash masalasi fuqaro pensiya yoshiga to‘lgan kunning o‘zida ko‘rib chiqilishini belgilash maqsadga muvofiq. Shuningdek, fuqaroga tayinlangan pensiyaning turi, miqdori va muddati

to'g'risida tegishli xabarnoma yuborilishi uning o'z pensiya huquqidan xabardorligini ta'minlaydi.

Mazkur tartib voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning yordamga muhtoj ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyati bilan bog'liq nizolarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ota-onaning doimiy daromad manbai o'z vaqtida aniqlanishi uning moddiy va oilaviy ahvolini to'liq baholash, yordamga muhtojlik darajasini aniqlash hamda voyaga yetgan boladan undiriladigan moddiy yordam miqdorini adolatli belgilashga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlil voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyatini belgilashda "yordamga muhtojlik" mezoniga faqat ota-onaning amaldagi daromadlari nuqtai nazaridan yondashish yetarli emasligini ko'rsatadi. Mazkur mezon ota-onaning real moddiy ta'minlanganlik holati asosida baholanishi lozim.

Shundan kelib chiqib, tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolaning ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyatini belgilashda ota-onaning yordamga muhtojligi uning amaldagi daromadlari bilangina emas, balki qonunchilik bilan kafolatlangan daromad manbalari va ulardan foydalanish imkoniyatlarini ham hisobga olgan holda aniqlanishi zarur.

Ikkinchidan, "yordamga muhtojlik" va "real moddiy ta'minlanganlik" kategoriyalarini o'zaro bog'liq holda baholash taklif etiladi. Bunda real moddiy ta'minlanganlik ota-onaning amalda olayotgan daromadlari, pensiya va boshqa ijtimoiy to'lovlari, shuningdek, qonunchilikka muvofiq olish huquqiga ega bo'lgan kafolatlangan daromad manbalari majmui sifatida e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, pensiya yoshiga yetgan ota-onaning yoshga doir pensiya olish huquqidan o'z vaqtida foydalanmasligi uning moddiy ahvolini obyektiv baholashga salbiy ta'sir qilishi mumkinligi sababli yoshga doir pensiyani proaktiv shaklda tayinlash mexanizmini qonunchilik darajasida mustahkamlash taklif etiladi.

To'rtinchidan, ushbu mexanizmning huquqiy asosini yaratish maqsadida "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasini **"Ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda pensiya fuqaroning murojaatisiz proaktiv shaklda tayinlanadi"** degan qoida bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, mazkur Qonunni **43¹-modda** — **"Yoshga doir pensiyani proaktiv shaklda tayinlash"** bilan to'ldirish hamda unda yoshga doir pensiyani davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlaridagi ma'lumotlar asosida fuqaroning murojaatisiz tayinlash, shu bilan birga fuqaroning bunday pensiyani olishni rad etish yoki pensiyaning boshqa turini tanlash huquqini saqlab qolish taklif etiladi.

Oltinchidan, Qonunning 45-moddasida yoshga doir pensiyani proaktiv shaklda tayinlash masalasi fuqaro pensiya yoshiga to'lgan kunning o'zida ko'rib chiqilishi hamda tayinlangan pensiyaning turi, miqdori va muddati haqida fuqaroga xabar berilishi lozimligi haqidagi qoidalarni belgilash maqsadga muvofiq.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi pensiya yoshiga yetgan ota-onaning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqini o'z vaqtida ro'yobga chiqarish bilan bir qatorda,

voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning yordamga muhtoj ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyatini belgilashda ota-onaning haqiqiy moddiy holatini obyektiv baholash imkonini beradi.

Voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning yordamga muhtoj ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyati oila a'zolarining o'zaro moddiy ko'maklashuviga asoslangan muhim oilaviy-huquqiy majburiyat hisoblanadi. Mazkur majburiyatni qo'llashda ota-onaning yordamga muhtojligini to'g'ri aniqlash nafaqat uning huquq va manfaatlarini himoya qilish, balki voyaga yetgan bolaning zimmasiga yuklatiladigan moddiy majburiyatning adolatli va mutanosib bo'lishini ta'minlash uchun ham muhimdir.

Tadqiqot natijalari ota-onaning yordamga muhtojligini aniqlashda faqat uning amalda olayotgan daromadlarini hisobga olish yetarli emasligini ko'rsatadi. Ota-onaning pensiyasi, boshqa ijtimoiy to'lovlari, doimiy daromad manbalari hamda qonunchilikka muvofiq foydalanishi mumkin bo'lgan kafolatlangan moddiy ta'minot vositalari ham kompleks ravishda baholanishi lozim.

Shu jihatdan yoshga doir pensiyani proaktiv shaklda tayinlash alohida ahamiyatga ega. Pensiya yoshiga yetgan fuqaroning pensiya olish huquqini uning alohida murojaatini kutmasdan davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlarida mavjud ma'lumotlar asosida amalga oshirish shaxsning kafolatlangan daromad manbaini o'z vaqtida shakllantirish imkonini beradi. Natijada ota-onaning moddiy yordamga real ehtiyojini aniqlash uchun yanada obyektiv huquqiy asos yaratiladi.

Shu munosabat bilan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida pensiyani proaktiv shaklda tayinlashning umumiy asosini belgilash, Qonunni yoshga doir pensiyani proaktiv tayinlash tartibini nazarda tutuvchi yangi 43¹-modda bilan to'ldirish hamda 45-moddada mazkur pensiyani fuqaro pensiya yoshiga to'lgan kunning o'zida ko'rib chiqish va bu haqda fuqaroni xabardor qilish mexanizmini mustahkamlash taklif etiladi.

Taklif etilayotgan huquqiy mexanizmning oilaviy-huquqiy ahamiyati shundaki, **u voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning yordamga muhtoj ota-onasiga moddiy yordam berish majburiyatini belgilashda ota-onaning real moddiy ta'minlanganlik holatini aniqlash, "yordamga muhtojlik" mezonini obyektiv baholash va farzand zimmasiga yuklatiladigan moddiy yordam miqdorini adolatli belgilashga xizmat qiladi.**

Shunday qilib, ota-onaning ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqini o'z vaqtida amalga oshirish va uning voyaga yetgan boladan moddiy yordam olish huquqi bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o'zaro bog'liq huquqiy mexanizmlar sifatida qaralishi lozim. Bunday yondashuv yordamga muhtoj ota-onaning manfaatlarini samarali himoya qilish bilan bir qatorda ota-ona va voyaga yetgan bola manfaatlari o'rtasida adolatli muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 1998-yil 30-aprel, 607-I-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 1993-yil 3-sentabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 2022-yil 28-oktabr.
6. Rahmonqulov H.R. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997.
7. Mamasiddiqov M.M. Oila huquqi. – Toshkent: Adolat.
8. Tursunov Y. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta’minot huquqi. – Toshkent, 2012.
9. Пчелинцева Л.М. Семейное право России: учебник. – Москва: Норма.
10. Нечаева А.М. Семейное право: учебник. – Москва: Юрайт.
11. Антокольская М.В. Семейное право: учебник. – Москва: Норма.
12. Косова О.Ю. Право на содержание: семейно-правовой аспект. – Иркутск: Издательство БГУЭП.
13. Parkinson P. Family Law and the Indissolubility of Parenthood. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
14. Xushboqov Sh. Pensiya tayinlashda ish stajining ahamiyati va uning huquqiy asoslari // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4. – No. 6. – B. 309–313.

Elektron manbalar

15. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – LexUZ.
16. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining rasmiy portali.
17. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali – pensiya ta’minoti va yoshga doir pensiya tayinlashga oid rasmiy ma’lumotlar.